

## KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” ASARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

**Gulruhbegim Hamroyevna**

*Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Kaykovus qalamiga mansub “Qobusnoma” asari va uning ilmiy tahliliga to’xtalib o’tildi. “Qobusnoma” asarida keltirilgan hikoyalar va hadislarning sharhi tushintirib o’tilgan. “Qobusnoma” asarining tarbiyaviy ahamiyati yoritib berilgan.*

**Kalit so’zlar:** *Payg’ambar, hadis, tarbiya, evrilish, manaviy dunyo, nad, salovat.*

**Аннотация:** *Данная статья посвящена произведению Кайковуса «Кобуснама» и его научному анализу. Разъясняется комментарий к рассказам и хадисам, представленным в «Кобуснама». Подчеркнуто воспитательное значение произведения «Кобуснама».*

**Ключевые слова:** *Пророк, хадис, образование, эволюция, духовный мир, благословение, благословение.*

“Qobusnoma” – Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan axloqiy-ta’limiy asar, fors-tojik badiiy nasrining birinchi va yirik yodgorligi (11-asr). Tabariston (Mozandaron) hukmdori Shams al-Maoliy Qobusning nabirasi Unsur al-Maoliy (Kaykovus, 1021—98) tomonidan fors tilida yozilgan (1082—83) va “Nasihatnomai Kaykovus” deb atalgan. “Qobusnoma” shu asarning o’zbekcha tarjimasidir. Muallif asarni o’g’li Gilonshohga bag’ishlagan.

Kaykovus og’li Gilonshohga tarbiya berish unga ma’naviy meros qoldirish uchun shu asarni yozganligini ta’kidlaydi. U shunday deydi: “Har ota-ona umri davomida yiqqan terganlarini farzandiga qoldirib ketgisi keladi. Men ham shuni xohladim. Mening hayotim bo’yi yig’gan mana shu so’zlarimni senga qoldirib ketyapman og’lim” deydi Kaykovus [1].

“Qobusnoma” asosini Qur’oni karim suralari, Muhammad (sav)ning faoliyati va ko’rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi. Asar 44 bobdan iborat. Dastlabki 4 bobi Haqni tanimoq, Payg’ambarlarning xilqati (yaratilishi), Alloh ne’matiga shukur qilmoq haqida bo’lib, qolgan 40 bobi ota-onani hurmatlash, ilmiy bilimlarni, san’atni egallash, harb, savdo, dehqonchilik ishlari va hunarni o’rganish, odob-axloq qoidalariga rioya etish, farzand tarbiyasi, saxovat va juvonmardlik kabi ko’plab masalalarni o’z ichiga oladi. Asarda hunar va ilm jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari deb qaraladi. Odamlar 3 guruhga bo’linib, ularning jamiyatda tutgan o’rni belgilanadi; odamlarning fazilatlar ham 3 guruhga bo’linadi: aqllilik, haqgo’ylik, juvonmardlik [2].

Kaykovus dunyodagi mavjudotni birbiri bilan bog’liq va murossasiz deb talqin qiladi. U kishi ruhiyatini ham 2 guruhga bo’ladi: jismoniy sezgini modda, ruhiy hissiyotni esa “jon” bilan bog’laydi va bularning birini moddiy, ikkinchisini ruhiy hayot mahsuli deb ko’rsatadi.

“Qobusnoma” rus va G‘arb sharqshunoslarining, Sharq olimlari va pedagoglarining diqqatini anchadan beri o‘ziga tortib keladi. Asar turk (1432, 1705), uyg‘ur (178687), nemis (1811), o‘zbek (1860, Ogahiy tomonidan), tatar (1881), fransuz va rus (1886) tillariga tarjima qilingan. Ogahiy tarjimasining 2 qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida, yana bir qo‘lyozma nusxasi Sankt-Peterburgda Saltikov-Shchedrin nomidagi Xalq kutubxonasida saqlanadi. “Qobusnoma”ning Subutoy Dolimov tomonidan hozirgi o‘zbek tiliga o‘girilgan nusxasi Toshkentda 3 marta nashr qilingan. Bu asar o‘zing purma‘no hikmatlariga to‘laligi bilan ham alohida ahamiyatga egadir. Asarda adib yoshlar tarbiyasi va ularning ma‘naviy dunyosi shakllanishiga alohida e‘tibor bergan. Hozirgi kunda glaballashatogan internet davrida bu kabi kitoblar yoshlar ongiga cheksiz ma‘naviyat bulog‘i bo‘la oladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Ommaviy madaniyat”, “Yevropa madaniyati” singari kirib kelayotgan oqimlarni qabul qilish va ularga ergashish oddiy holga aylanib bormoqda [3]. Vaholanki bizning o‘z o‘zligimiz, o‘zimizga xos “Sharqona madaniyat”imiz bor. Biz tashqi ta‘sirilar ostida o‘zligimizni yo‘qotib bormoqdamiz.

“Qobusnoma” Singapore asarlar esa bizning o‘zligimizni anglatuvchi bebaho mayoq timsolidir. Bu asarda ota-onani e'zozlash ularga hurmat ko‘rsatish borasida keltirilgan pand-nasihatlarini o‘qigan inson, albatta, chuqur o‘yga tolishi va hoytini sarhisob qilishi tabiiy hol. Biz hozir internet davrida yashab temirga bog‘lanib qolyabmizki, hatto atrofimizdagi yaqinlarimizga ajratish uchun vaqt topolmaymiz. Ammo, faqat bu dunyo xavaslari bilan yashab hech narsaga erisha olmaymiz [4]. Bu dunyo o‘tkinchi dunyo. Bu dunyo yolg‘onchi dunyo, bir kam dunyo, kamlari hech to‘lmagan dunyo. Olloh taola bu dunyoni insonga sinov qilib bergan.

Bu sinovda sizga yo‘l ko‘rsatuvchi ustoz etib, ota-onangizni tayinlagan. Shuning uchun ham bejizga xalq orasida “Ota rozi, xudo rozi”, “Jannat onalar oyog‘i ostidadir” degan maqollar uchramaydi. Bular xalq haqiqatidir. “Qobusnoma”ni o‘qigan insonning dunyoga va atrofdagilariga bo‘lgan munosabati o‘zgarishi tabiiy holat. Shuning uchun bu asar hozirgi yosh avlod tarbiyasida juda ahamiyatlidir [5].

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash kerakki dunyoda ota-onani hurmatlash eng katta vazifa bo‘lib hisoblanadi. Kaykovus ham o‘z asarida shu haqiqatni dalillab bera olgan. Bu asar o‘zining ma‘naviyat bulog‘i ekanligini dallillagan va asrlar osha o‘z o‘rnini yo‘qotmaga sehrli mo‘jizadir desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu asar kitobxonlari safini kengaytirish uning yoshlar hayotidagi ahamiyatini kuchaytirish va albatta bu asarni yoshlarning sevimli adabiyotiga aylantirish zarurati siz va bizning oldimizdagi ko‘ndalang qo‘yilgan muhim masaladir. Zero, kelajak yoshlar qo‘lida!

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Habib Abdunazar. Unsur al-Maoliy, Qobusnoma, T., 1973 (to'ldirilgan 3-nashri), T., 1994.
2. Kaykovus. "Qobusnoma", T – 1994.
3. A. Zunnunov. "O'zbekiston pedagogical tarixi" (qo'llanma), T – 1997.
4. Abdullayev, S., & Abdullayev, O. (2023). O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA IQTISODIYOT SOHASIGA DOIR ZAMONAVIY LEKSIKA. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(31). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/1274>
5. Ikrom o'g'li, A. O. (2023). O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILI LEKSIKOGRAFIYASINING BOYISH MANBALARI VA USULLARI. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 50-52.
6. Abdullayev, O. (2022). O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA VA MAISHIY SOHAGA DOIR ZAMONAVIY LEKSIKANING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(1), 130-133.